



**O‘T TOSH KASALLIKLARINI ERTA ANIQLASHDA UTT NING
AHAMIYATI**

TOSHKENT TIBBIYOT UNIVERSITETI

TOSHKENT

ABDIQODIROV FARRUX ABUBAKIR OG‘LI

+998934430250

Dolzarbligi

O‘t-tosh kasalligi dunyo bo‘yicha keng tarqalgan gastroenterologik patologiyalardan biri bo‘lib, aholining 10–20 % gacha qismida uchrashi qayd etiladi. Kasallik ko‘pincha uzoq vaqt davomida simptomsiz kechishi va asoratlari (o‘tkir xoletsistit, pankreatit, o‘t yo‘llari obstruksiyasi) rivojlangandan keyingina aniqlanishi bilan xavflidir. Shu sababli uni erta tashxislash tibbiyotning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ultratovush tekshiruvi (UTT) invaziv bo‘lmagan, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan maqbul va yuqori informativ diagnostika usuli sifatida o‘t-tosh kasalligini skrining darajasida aniqlash imkonini beradi. UTT yordamida hatto kichik o‘lchamdagi toshlarni, o‘t pufagi devori o‘zgarishlarini va o‘t yo‘llari patologiyalarini erta bosqichda aniqlash mumkin. Bu esa kasallik asoratlarini kamaytirish, davolash samaradorligini oshirish hamda jarrohlik aralashuvlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Maqsad:

O‘t-tosh kasalligini erta aniqlashda ultratovush tekshiruvining diagnostik imkoniyatlari va klinik ahamiyatini baholash

Metod va materiallar

Tadqiqot ishida o‘t-tosh kasalligiga shubha qilingan turli yoshdagi bemorlarning klinik, laborator va instrumental tekshiruv natijalari tahlil qilindi. Barchatekshirilgan 85 bemorlarda o‘t pufagi va o‘t yo‘llarining ultratovush tekshiruvi standart diagnostik protokol asosida amalga oshirildi. Tekshiruv



jarayonida o't pufagining hajmi, devor qalinligi, ichki tuzilmasi, koncrementsiyalar mavjudligi, ularning soni, o'lchami hamda o't yo'llarining holati baholandi.

Olingan ultratovush natijalari klinik belgilar va laborator ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, UTTning o't-tosh kasalligini erta aniqlashdagi diagnostik qiymati, informativligi va qo'llash samaradorligi isbotlandi.

Natija.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tekshiruvdan o'tkazilgan bemorlarning 68 % ida ultratovush tekshiruvi orqali o't pufagida koncrementsiyalar aniqlangan bo'lsa, 21 % bemorlarda o't pufagi devorining qalinlashuvi va yallig'lanish belgilari kuzatildi. Shuningdek, 11 % bemorlarda o't yo'llarining kengayishi aniqlanib, bu holat o't oqimi buzilishi bilan bog'liq patologik o'zgarishlarni ko'rsatdi.

Ultratovush tekshiruvi natijalari klinik belgilar bilan taqqoslanganda, kasallikning erta bosqichida bemorlarning qariyb 54 % ida simptomlar yaqqol namoyon bo'lmaganiga qaramay, UTT yordamida patologik o'zgarishlar aniqlangan. Bu esa ultratovush diagnostikasining o't-tosh kasalligini erta aniqlashdagi yuqori sezgirlik va informativlikka ega ekanligini tasdiqlandi

Xulosa.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ultratovush tekshiruvi o't-tosh kasalligini erta aniqlashda yuqori informativ, xavfsiz va samarali diagnostika usuli hisoblanadi. UTT yordamida klinik belgilar yetarli darajada namoyon bo'lmagan bosqichda ham o't pufagi va o't yo'llaridagi patologik o'zgarishlarni aniqlash mumkin bo'lib, bu kasallik asoratlarini oldini olish, davolash taktikasini o'z vaqtida tanlash hamda bemorlar hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli ultratovush tekshiruvini o't-tosh kasalligi xavfi mavjud bemorlar uchun asosiy skrining usuli sifatida keng qo'llash maqsadga muvofiq.